

RAQAMLI IQTISODIYOTDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH

Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishni rivojlantirish tamoyillari, uni texnologik tomondan yangi bosqichga olib chiqish, shu asnoda mamlakat iqtisodiyotini tubdan yaxshilash bo'yicha metod va takliflar yoritib berilgan. Shuningdek raqamli iqtisodiyot sohasini rivojlantirish orqali mehnat unumdorligiga erishish mumkinligi tamoyillari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, texnologiya, innovatsiya, bozor iqtisodiyoti, ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi.

Аннотация:

В данной статье освещены принципы цифровизации отраслей экономики, вывода ее на новый уровень с технологической стороны, методы и предложения по коренному улучшению экономики страны. Также выделены принципы достижения производительности труда за счет развития экономики. упоминается цифровая экономика.

Ключевые слова: Цифровизация, технологии, инновации, рыночная экономика, производство, производительность труда.

Annotation:

In this article, the principles of digitalization of economic sectors, bringing it to a new level from the technological side, methods and proposals for fundamentally improving the country's economy are highlighted. Also, the principles of achieving labor productivity through the development of the digital economy are mentioned.

Keywords: Digitization, technology, innovation, market economy, production, labor productivity.



KIRISH

Hozirda aynan iqtisodiyoti bevosita raqamlashtirish bilan chambarchas bo'g'liq bo'lgan dunyo mamlakatlari tezda rivojlanib, iqtisodiyoti gullab yashnamoqda. Iqtisodiyot avvalgi klassik turidan farqli o'laroq hozirda o'zining yangi ko'rinishlariga ega bo'lmoqda. Bunda ayniqsa raqamli iqtisodiyot rivojlanish darajasi bo'yicha har doim oldinda bormoqda. U kundan kunga ortib borayotgan inson ehtiyojlarini qondirishda qo'l kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yili Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikolas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot — raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir. Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. Raqamli iqtisodiyot korrupsiya va „qora iqtisodiyot“ning asosiy kushandasidir. Biz uni fan tilida xufiyona iqtisodiyot deb ataymiz. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliği yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Boshqacha qilib aytganicha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish tufayli ham mehnat unumdorligi oshadi ham iqtisodiyotdagi barcha tranzaksiyalar va o'tkazmalarni shaffof usulda tegishli soliq yoki moliya organlari tomonidan nazorat to'liq amalga oshiriladi. Bu esa davlat umumiy iqtisodiyotini rivojlantirishga katta yordam beradi.

O'zbekistonda Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi jadallashmoqda. Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-



ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin. Mamlakatimizda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarini raqamlashtirish, davlat axborot tizimlari va elektron xizmatlarni joriy etish, shuningdek, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni ta’minlash bo‘yicha xalq ta’limi, davlat xizmatlari, sud, moliya va bank tizimida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatning rivojlanish holatini samarali reyting baholash tizimi hamda uni amalga oshirishning idoralararo mexanizmining yo‘qligi iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarni raqamli transformatsiyasi hozirgi holatini chuqur tahlil qilishga to‘sqinlik qilmoqda.

Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat rivojlanish holatini baholashning yagona reyting baholash tizimini joriy etish orqali kelgusida raqamli rivojlanishning tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish uchun bir nechta shu sohaga oid islohotlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning o‘rtalarida Alen Turen, Daniel Bell, Elvin Toffler va boshqa bir qator sosiologlar mazkur jarayonlarni kuzatib, tadqiqotlari davomida o‘z ilmiy asarlarida jamiyat tipologiyasining ma’lum bir sintetik modelini yaratdilar va jamiyat rivojlanishini sanoatgacha, sanoat va postindustrial bosqichlari bo‘lganligini aytib o‘tishadi.

B.M.Glazkova rahbarligida ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqilgan tasnifda raqamli platformalarga quyidagicha ta’rif beriladi: raqamli platformalarning ajralib turadigan turlari ierarxiyani shakllantirishi mumkin, bunda raqamli platformalar infratuzilmaning raqamli platformalari ekotizimlariga kiritilgan va o‘z navbatida, iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llaniladigan raqamli platformalarning ishlashini ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLIGIYASI

Ilmiy izlanish jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida „2020- yil — “ Ilm- ma’rifat va raqamli iqtisodiyot yili ” deb e’lon qilindi. Bu yildan so’ng O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan



e'tibor yanada kuchaydi. Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar ijrosi o'laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o'tilishi qadamma-qadam amalga oshirilmoqda. Raqamli transformatsiya realizatsiyasi bo'yicha so'nggi yillarda amalga oshirilgan ishlar qatorida aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi, Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi "business.gov.uz" portali ishga tushirildi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha eng istiqbolli va strategik muhim loyihalarni, shuningdek blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish sohasida chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan "Raqamli ishonch" jamg'armasi tashkil etildi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo'lgan "IT-park"lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo'lga qo'yildi. O'zbekiston respublikasida Raqamli iqtisodiyot va kripto aktivlar sohasini rivojlantirish to'g'risidagi PQ-3238-son qarori 03.07.2018 yil qabul qilindi. Ushbu normativ qonun hujjati orqali O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni va kripto aktivlarni boshqarish sohasidagi ishlarni tartibga soldi.

Raqamli iqtisodiyotning afzalliklariga keladigan bo'lsak, birinchi navbatda bu iqtisodiyot turi qo'g'ozbozlikga chek qo'yadi. Shuningdek: bajarilgan ishlarning va hisob-kitobning aniq va ishonchligini ta'minlaydi; ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarning kamayishiga olib keladi; kompyuter savodxonligi bor yoshlar uchun yangi ish o'rinlari yaratiladi; ta'lim sohasida ham bir qator qulayliklarga ega va u talabalarning vaqtini tejashiga va ko'proq bilim olishga ko'maklashadi va ular masofadan turib o'qishga yordam beradi; eng asosiylaridan yana biri bo'lgan korrupsiyaning oldini oladi. Chunki korxonalar va tashkilotlarda tanish-bilishchilikni yo'qotadi va hujjatlarning shaffofligini ta'minlaydi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni "drayver" sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 barobar



oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish, dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 barobar, ularning eksportini esa 10 barobar oshirish maqsadi ham belgilangan edi. Jumladan: Iqtisodiyot real sektorida hamda moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarini raqamlashtirish chora-tadbirlari ijrosi ustidan hududlar kesimida jamoatchilik va deputatlik nazorati amalga oshiriladi. Shuning barobarida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasidagi chora-tadbirlar dasturi shahar va tumanlar kesimidagi ko‘rsatkichlari shakllantiriladi. “ Raqamli O‘zbekiston – 2030 ” strategiyasi doirasidagi chora-tadbirlarning shahar va tumanlar kesimidagi ijrosini mahalliy Kengashlardagi deputatlik guruhlar tomonidan har oyda tahlil qilib borish tizimi ham yo‘lga qo‘yiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyotning keying bosqichlari bevosita insonlarning intellectual qarashlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Har bir iqtisodiyotning sikli bo‘lgani singari bunda ham raqamli jarayonlarning globallashuvi ko‘zda tutiladi. Raqamli iqtisodiyot insonlarning mehnat unumdorligining oshishiga olib keldi, iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda mehnat resurslarining yangi guruhini taqdim etdi. Barcha iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlantirishning birdan-bir yo‘li sifatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ostanagulov M. Iqtisodiy tahlil va audit. Darslik. - T: Talqin. 2008. 424 b
2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SH.M. MIRZIYOYEVNING 2020-YIL 29-DEKABRDAGI OLIY MAJLISGA MUROJAATNOMASI
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son
4. Абдуллаев О.М., Фаттахов А.А., К.Ахмедов. Рақамли иқтисодиёт. Т.: “LESSON PRESS, нашрбти 2020 йил - 686 бет.

